“TASDIQLANGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
aksiyadorlik tijorat Xalq banki
aksiyadorlarining navbatdan tashqari
umumiy yig‘ilishi qarori bilan
2026-yil 12-martdagi
1- sonli bayonnoma

A. Pikker
Kuzatuv kengashi Raisi

“RO‘YXATGA OLINGAN”

O‘zbekiston Respublikasi
Markaziy banki

2026-yil “1” may
25 - son bilan

N.N. Saydullayev
Markaziy bank Raisining
birinchi o‘rinbosari

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AKSIYADORLIK TIJORAT XALQ BANKINING USTAVI

(yangi tahrir)

Toshkent – 2026-yil

1-bob. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki (bundan buyon matnda Bank deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi, “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “O‘zjamg‘armabank”ni O‘zbekiston Respublikasi Xalq bankiga aylantirish to‘g‘risida”gi 1995-yil 4-oktabrdagi 386-son qaroriga muvofiq tashkil etilgan.

2. Bankning firma nomi:

davlat tilida nomi: to‘liq – “O‘zbekiston Respublikasi aksiyadorlik tijorat Xalq banki”, qisqartirilgan holda - Xalq banki;

rus tilida: to‘liq – “Акционерный коммерческий Халк банк Республики Узбекистан”, qisqartirilgan holda - Халк банк;

ingliz tilida: to‘liq – “Joint-stock commercial Xalq bank of the Republic of Uzbekistan”, qisqartirilgan holda – Xalq Bank.

Bank o‘z firma nomidan mutlaq foydalanish huquqiga ega.

3. Bank aksiyadorlik jamiyati shaklida tashkil etiladi.

4. Bank yuridik shaxs hisoblanadi hamda o‘zining filiallari va alohida bo‘linmalari bilan yagona tizimni tashkil etadi. Bank o‘zining mustaqil balansida hisobga olinadigan alohida mol-mulkka ega bo‘ladi.

5. Bank aholi omonatlarining saqlanishi va ularning o‘z vaqtida qaytarilishini kafolatlovchi mulkiy, moliyaviy, boshqa majburiyatlar va talablar bo‘yicha “O‘zjamg‘armabank”ning huquqiy vorisi hisoblanadi.

Bank O‘zbekiston Respublikasi hududida va undan tashqarida bank hisobvaraqlari ochishga haqlidir.

6. Bank o‘z firma nomi to‘liq yozilgan va joylashgan yeri ko‘rsatilgan yumaloq muhrga, shuningdek, shtamplarga, o‘z nomi davlat tilida va boshqa tillarda yozilgan blankalarga, timsoliga ega bo‘ladi. Bank o‘z emblemasiga (xizmat ko‘rsatish belgisiga) va xususiy alomatlarini aks ettiruvchi boshqa vositalarga ega bo‘ladi.

7. Bank o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga, shuningdek, ushbu Ustavga amal qiladi.

Bank faoliyatini tashkil etish bilan bog‘liq masalalar, shu jumladan, Bank Kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolari hamda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan xodimlarga nisbatan talablar banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilik, shu jumladan, Bank faoliyatiga ruxsat berish tartibi va shartlari to‘g‘risidagi nizom (ro‘yxat raqami 3252, 2020-yil 30-iyun) talablariga muvofiq tartibga solinadi.

8. Bankda omonatlarni himoya qilish banklardagi omonatlarni himoya qilish kafolatlari to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

9. Bank o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘zining barcha mol-mulki bilan javob beradi.

Bank qonunchilikda belgilangan tartibda mulkiy va nomulkiy huquqlarni amalga oshiradi, majburiyatlar oladi, sudda da’vogar hamda javobgar bo‘ladi.

10. Bank o‘z faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) tomonidan berilgan litsenziya asosida amalga oshiradi.

Bank cheklanmagan muddatga tuziladi.

11. Bankning pochta manzili: O‘zbekiston Respublikasi, 100096, Toshkent shahri, Qatortol ko‘chasi, 46.

Bankning elektron pochta manzili: info@xb.uz.

2-bob. Bankning operatsiyalari

12. Jismoniy va yuridik shaxslarga keng doiradagi yuqori sifatli bank xizmatlari va boshqa xizmatlarni ko‘rsatish, shu jumladan, ko‘rsatib o‘tilgan shaxslardan pul mablag‘larini omonatga jalb qilish, kredit-hisob-kitob va boshqa turdagi bank operatsiyalarini amalga oshirish, shuningdek, o‘z faoliyatidan foyda olish Bank faoliyatining asosiy maqsadi hisoblanadi.

13. Bank amaldagi qonunchilikka muvofiq quyidagi moliyaviy operatsiyalarni amalga oshiradi:

pul mablag‘larini omonatlarga (depozitlarga) jalb etish;

to‘lovlarni amalga oshirish, shu jumladan bank hisobvaraqlarini ochmasdan amalga oshirish;

jismoniy va yuridik shaxslarning bank hisobvaraqlarini, shu jumladan banklarning vakillik hisobvaraqlarini ochish hamda yuritish;

kreditlarni ularning qaytarilishi, foizliligi va muddatliligi sharti bilan o‘z nomidan o‘zining mablag‘lari hamda jalb etilgan mablag‘lar hisobidan berish;

chet el valyutasi bilan naqd va naqdsiz shakllardagi operatsiyalar;

jismoniy yoki yuridik shaxs bilan tuzilgan shartnoma bo‘yicha pul mablag‘larini va boshqa mol-mulkni ishonchli boshqarish;

inkassatsiya va kassa xizmatlarini ko‘rsatish;

uchinchi shaxslar nomidan ularning majburiyatlari bajarilishini nazarda tutuvchi kafolatlar berish va boshqa majburiyatlarni qabul qilish;

pul talabnomasidan boshqa shaxs foydasiga voz kechish evaziga moliyalash (faktoring) shartnomasiga asosan talab qilish huquqini olish yoki boshqa shaxsga berish;

qimmatli qog‘ozlarni chiqarish, xarid qilish, sotish, ularning hisobini yuritish va ularni saqlash, mijoz bilan tuzilgan shartnomaga binoan qimmatli qog‘ozlarni boshqarish, ular bilan boshqa operatsiyalarni bajarish;

affinlangan qimmatbaho metallar sotib olish va sotish, shu jumladan metallarni mas’ul saqlash hisobvaraqlarini hamda metallarning egasizlantirilgan (jismoniy bo‘lmagan) hisobvaraqlarini yuritish;

qimmatbaho metallardan yasalgan tangalarni sotib olish va sotish;

hosilaviy moliya vositalari (derivativlar) bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

hujjatlarni yoki qimmatliklarni saqlash uchun maxsus binolarni yoki ularning ichidagi seyflarni ijaraga berish;

lizing berish;

qonunchilikda nazarda tutilgan shakllarda qarzlar berish;

moliyaviy operatsiyalar bilan bog‘liq maslahat xizmatlari ko‘rsatish;

aktivlar majmuini (portfelini) boshqarish;

elektron pullarni chiqarish, ulardan foydalanish va to‘lash;

bank kartalarini berish va to‘lovlarga ishlov berish, bank kartalariga boshqa tashkilotlar, jumladan boshqa moliya institutlari bilan birgalikda xizmat ko‘rsatish;

ko‘chmas mulkka bo‘lgan huquqlarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazish bo‘yicha xizmatlarni ro‘yxatdan o‘tkazuvchi organ bilan elektron axborot almashish orqali ko‘rsatish.

Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq Bank boshqa moliyaviy operatsiyalarni ham amalga oshiradi.

14. Bank bevosita ishlab chiqarish, savdo, sug‘urta faoliyati hamda banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan moliyaviy operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lmagan boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishga haqli emas (qonunchilikda ko‘zda tutilgan holatlar bundan mustasno).

Ushbu bandning birinchi qismida ko‘rsatilgan cheklov quyidagi hollarga nisbatan tatbiq etilmaydi:

bank kartalari asosida naqd pulsiz hisob-kitoblar tizimlarida foydalaniladigan ixtisoslashtirilgan uskunani va unga doir dasturiy ta’minotni sotish yoki ijaraga berishga;

o‘z aktivlarini sotishga;

chek daftarchalarini chiqarish, realizatsiya qilish va tarqatishga;

sug‘urta tashkilotlari bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi rezidentlari nomidan sug‘urta shartnomasi tuzilishini tashkil etish bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishga;

Bank o‘zi muassis bo‘lgan yuridik shaxslarga o‘z mol-mulkini mulkiy ijara (arenda) shartnomasiga muvofiq ijaraga berishga.

Bankka yuridik shaxslarni tashkil etish va (yoki) yuridik shaxslarning ustav fondlaridagi (ustav kapitallaridagi) ulushlarni yoki aksiyalarni olish taqiqlanadi, bundan quyidagilar mustasno:

kredit, sug‘urta, faktoring va lizing operatsiyalarini professional asosda amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

moliya bozori infratuzilmasining bir qismi bo‘lgan yoki banklarga axborot va maslahat xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar;

qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar;

Bankning kafolati ostida qimmatli qog‘ozlarni chiqarish va joylashtirish maqsadida mazkur Bankning xorijda tashkil etiladigan sho‘ba tashkilotlari;

faqat inkassatsiya faoliyati bilan shug‘ullanuvchi yuridik shaxslar;

bank operatsiyalari bo‘yicha hisob-kitoblar, shu jumladan bank kartalari bilan operatsiyalarga doir hisob-kitoblar ishtirokchilari o‘rtasida o‘zaro bog‘liqligini ta’minlash bo‘yicha xizmatlar ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar;

fond va valyuta birjalari;

kredit byurolari;

qimmatli qog‘ozlarning ikkilamchi bozoriga joylashtirilgan aksiyalarning yigirma foizidan ortiq bo‘lmagan miqdorda fond birjasi listingiga kiritilgan aksiyadorlik jamiyatlari.

Ushbu bandning uchinchi qismiga muvofiq Bank tomonidan bir yuridik shaxsning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini olish Bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining o‘n besh foizidan oshmasligi kerak. Ushbu cheklov bank tomonidan mazkur yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga yoki aksiyalariga egalik qilishga, shu jumladan mazkur yuridik shaxslarning tashkil etilishi hollariga nisbatan ham tatbiq etiladi.

Yuridik shaxslarning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarini yoki aksiyalarini sotib olish yig‘indisi Bankning birinchi darajali regulyativ kapitalining ellik foizidan oshmasligi kerak.

Agar Bank tomonidan yuridik shaxslar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlariga yoki aksiyalariga egalik qilish qonunchilikda ko‘rsatilgan miqdordan ortiq bo‘lsa, ushbu ortgan qismni Bank bir yil ichida sotishi shart.

Bankka o‘z ustav kapitalining bir yoki undan ortiq foiziga egalik qiluvchi yuridik shaxsning ustav fondida (ustav kapitalida) ishtirok etish taqiqlanadi.

Ushbu bandning talablari Bank tomonidan boshqa bankning aksiyalarini yoki o‘zga bank saqlovchisi bo‘lgan boshqa qimmatli qog‘ozlarni yoxud o‘zga bankka tegishli yuridik shaxslar ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushlarni yoki aksiyalarni ular tomonidan qo‘shib yuborish yoki qo‘shib olish shaklida qayta tashkil etish amalga oshirilayotganda olish hollariga nisbatan tatbiq etilmaydi.

15. Bank o‘z aksiyalarini sotib olish uchun Markaziy bankning dastlabki ruxsatnomasini olishi shart. Bank tomonidan sotib olinadigan o‘z aksiyalarining summasi Bank ustav kapitalining o‘n foizidan oshishi mumkin emas.

Bank o‘z aksiyalarini sotib olishga doir dastlabki ruxsatnomani olish uchun Markaziy bankka arizani va o‘z aksiyalarini sotib olish sabablarini ko‘rsatgan holda bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishining qarorini belgilangan tartibda taqdim etadi.

3-bob. Bankning huquq va majburiyatlari

16. Bank quyidagi huquqlarga ega:

banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikda nazarda tutilgan korxonalar, tashkilotlar va boshqa tijorat tuzilmalarini tashkil etishda va ularning faoliyatida o‘z mablag‘lari bilan, shu jumladan ulush qo‘shish asosida qatnashish;

Markaziy bankni xabardor qilgan holda O‘zbekiston Respublikasi hududida filiallar, bank xizmatlari ofislari (markazlari) va boshqa alohida bo‘linmalar ochish, shuningdek, uning ruxsatini olgan holda chet elda sho‘ba banklar ochish hamda filiallar va vakolatxonalar tashkil etish, chet el banklarining kapitalida ishtirok etish, shu jumladan chet el banklarini tashkil etishda ishtirok etish;

agar qonunchilik talablariga zid kelmasa, o‘z faoliyatini muvofiqlashtirish, o‘z manfaatlarini himoya qilish va qo‘shma dasturlarni amalga oshirish uchun bank uyushmalari va boshqa birlashmalarida qatnashish;

kreditlar, depozitlar bo‘yicha foiz stavkalari, bank operatsiyalariga oid vositachilik haqi miqdorini mustaqil belgilash;

bank hisobvaraqlarini ochish va yuritish, to‘lovlarni amalga oshirish, omonatlarga (depozitlarga) pul mablag‘larini jalb etish, o‘z nomidan kreditlar berish va mablag‘larni boshqa banklarda joylashtirish, hisob-kitob markazlari va vakillik hisobvaraqlari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirish;

budjetga va davlatning maqsadli fondlariga barcha soliq va majburiy to‘lovlar to‘langandan keyin Bank tasarrufida qoladigan sof foyda hisobidan zaxiralar va fondlar tashkil etish;

qonunchilikka muvofiq qimmatli qog‘ozlar bozorida professional faoliyatni amalga oshirish;

litsenziyada va ushbu Ustavda nazarda tutilgan, o‘z moliyaviy faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan boshqa xatti-harakatlar va operatsiyalarni amalga oshirish.

17. Bank quyidagilarga majburdir:

mablag‘larni Markaziy bankda zaxiraga qo‘yish va belgilangan iqtisodiy normativlarga rioya qilish bo‘yicha Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarni bajarish;

Bank aktivlarini tasniflash va ularning sifatini baholash, Bank aktivlari bo‘yicha ehtimoliy yo‘qotishlarga qarshi Markaziy bank tomonidan belgilangan tartibda va miqdorlarda zaxiralarni shakllantirish;

garovning (shu jumladan mol-mulk shaklidagi garovning), beriladigan kafolatlar, kafilliklar va majburiyatlarning yetarliligini hisobga olib, beriladigan kreditlar ta’minlanishining ichki normativ tartibini belgilash;

o‘z faoliyati to‘g‘risidagi axborotni qonunchilikda belgilangan tartibda oshkor etish;

bank xizmatlari iste’molchilarining bankni va bank xizmatlarini tanlashda erkinligi tamoyiliga rioya qilish;

Bankda Ichki audit, Ichki nazorat, Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatlari va Risk (tavakkalchilik)larni boshqarish bo‘linmalari mavjud bo‘lishini ta’minlash;

Bankning joylashgan yeri (pochta manzili) va elektron pochta manzili o‘zgarganligi to‘g‘risida yuridik shaxslarni davlat ro‘yxatidan o‘tkazuvchi organlarni yozma bildirish yuborish yo‘li bilan, aksiyadorlarni esa, ommaviy axborot vositalarida e’lon berish yo‘li bilan xabardor etish;

Bank aksiyadorlari reyestrini shakllantirish to‘g‘risida “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” AJ bilan kelishuv tuzish (imzolash);

qonunchilikka muvofiq bank sirini yoki qonun bilan himoya qilinadigan boshqa ma’lumotlarning oshkor etilmasligini ta’minlash;

shartnomaga muvofiq mijozning hisobvarag‘iga tushayotgan pul mablag‘larini qabul qilish va hisobga kiritish, mijozning hisobvarag‘idan tegishli pul mablag‘larini o‘tkazish hamda berish va hisobvaraq bo‘yicha boshqa operatsiyalarni amalga oshirish haqidagi topshiriqlarini bajarish;

Bank xizmatlari iste’molchilari murojaatlarini ko‘rib chiqish tartib-taomilini o‘z ichiga olgan tartibga ega bo‘lish va murojaatlarni amaldagi qonunchilikda belgilangan muddatlarda ko‘rib chiqish;

Bank buxgalteriya hisobini Markaziy bank tomonidan belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqilgan ichki hisob siyosatiga muvofiq tashkil etish va yuritish;

jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga, terrorizmni moliyalashtirishga va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirishga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonunchilik talablariga rioya etish;

Banklar va bank faoliyati to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarni bajarish.

4-bob. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi ijrosini tashkil etish

18. “Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq Bank jamg‘arib boriladigan pensiya tizimida qatnashadigan fuqarolarni hisobga qo‘yadi.

19. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi faoliyatini lozim darajada ta’minlash Bankning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi, Bank ushbu vazifalarni amalga oshirish maqsadida quyidagi huquqlarga ega bo‘ladi:

yakka tartibdagi jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish uchun jamg‘arib boriladigan pensiya badallarini qo‘yuvchilardan zarur ma’lumotlarni olish;

jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini investitsiya qilishdan olingan daromaddan marja olish. Marja miqdori O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi tomonidan belgilanadi.

Bank jamg‘arib boriladigan pensiya tizimining faoliyatini ta’minlash bo‘yicha yuklangan vazifalarni bajarish uchun quyidagilarga majburdir:

qonunchilikda belgilangan tartibda yakka tartibdagi jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarini ochish va yuritish;

yakka tartibdagi jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga badallarning va hisoblangan foizlarning shaxsiy hisobini yuritish;

jamg‘arib boriladigan pensiya badallari va foizlar yakka tartibdagi jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga o‘z vaqtida va to‘liq hajmda o‘tkazilishini ta’minlash;

jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlari miqdorlari o‘z vaqtida va to‘g‘ri aniqlanishini shuningdek, ularning oluvchilarga to‘liq berilishini ta’minlash;

yakka tartibdagi jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlaridagi mablag‘larning saqlanishini, ko‘rsatib o‘tilgan mablag‘larni moliyaviy vositalarga joylashtirish va ulardan investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanish yo‘li bilan ularning ko‘paytirilishini hamda inflyatsiyadan himoya qilinishini ta’minlash;

fuqarolarni ularning yakka tartibdagi jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlarining holati to‘g‘risida ularning murojaatiga ko‘ra xabardor qilish;

yakka tartibdagi jamg‘arib boriladigan pensiya hisobvaraqlariga tegishli bo‘lgan hujjatlar va yozuvlar saqlanishini ta’minlash.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi to‘g‘risidagi qonunchilikka muvofiq Bank boshqa huquqlarga ega bo‘lishi va boshqa majburiyatlar olishi mumkin.

20. Bank jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larining alohida hisobini yuritadi.

Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari Bank tomonidan jamg‘arib boriladigan pensiya to‘lovlarini amalga oshirish uchun foydalaniladi. Jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi bilan bog‘liq bo‘lmagan majburiyatlarni bajarish uchun foydalanilishi mumkin emas.

21. Ko‘paytirish va inflyatsiyadan himoya qilish maqsadida jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan Bank tomonidan investitsiya va kredit resurslari sifatida shuningdek, moliya vositalariga joylashtirish uchun foydalanilishi mumkin.

Bank jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘laridan O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi bilan kelishgan holda investitsiya va kredit resurslari sifatida foydalanadi.

Bank tomonidan jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘larini moliya vositalariga joylashtirish O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Markaziy bank tomonidan belgilanadigan tartibda amalga oshiriladi.

5-bob. Bank mablag‘lari, mol-mulki va kredit resurslari

22. Bankning o‘z mablag‘lari:

ustav kapitalidan;

zaxira fondidan;

taqsimlanmagan foydadan;

Bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi va Kuzatuv kengashi qaroriga ko‘ra shakllantiriladigan boshqa fondlardan hosil bo‘ladi.

23. Bankning ustav kapitali miqdori 11 517 308 144 000 (o‘n bir trillion besh yuz o‘n yetti milliard uch yuz sakkiz million bir yuz qirq to‘rt ming) so‘m miqdorida belgilangan. Ushbu summa nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘m bo‘lgan 11 517 308 144 (o‘n bir milliard besh yuz o‘n yetti million uch yuz sakkiz ming bir yuz qirq to‘rt) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalarga bo‘linadi.

24. Ustav kapitalini oshirish maqsadida, Bank chiqarishi mumkin bo‘lgan e’lon qilingan (qo‘shimcha) aksiyalar summasi 8 482 691 856 000 (sakkiz trillion to‘rt yuz sakson ikki milliard olti yuz to‘qson bir million sakkiz yuz ellik olti ming) so‘m bo‘lgan, nominal qiymati 1 000 (bir ming) so‘mlik 8 482 691 856 (sakkiz milliard to‘rt yuz sakson ikki million olti yuz to‘qson bir ming sakkiz yuz ellik olti) dona egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar.

25. Bank sof foydadan zaxira fondini tashkil etadi. Bank qonunchiligiga muvofiq boshqa fondlarni shakllantirishga haqlidir.

Boshqa mablag‘lar mavjud bo‘lmagan taqdirda, Bankning zaxira fondi Bankning zararlari o‘rnini qoplash, bankning korporativ obligatsiyalarini

muomaladan chiqarish, imtiyozli aksiyalar bo‘yicha dividendlar to‘lash va Bankning aksiyalarini qaytarib sotib olish uchun mo‘ljallanadi.

26. Bank fondlarini tashkil etish va ulardan foydalanish tartibi Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanishi mumkin.

27. Bankning mol-mulki o‘ziga tegishli bo‘lgan binolar, inshootlar, asbob-uskunalar, transport vositalari hamda boshqa moddiy va nomoddiy boyliklardan iborat bo‘ladi.

28. Bankning kredit resurslari quyidagilar hisobiga shakllanadi:

Bankning o‘z mablag‘lari;

grant mablag‘lari;

mijozlarning depozit hisobvaraqlardagi mablag‘lari;

boshqa banklar kreditlari;

moliya institutlarining kredit liniyalari va depozitlari;

obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlar chiqarish natijasida olingan mablag‘lar;

qonunchilikda belgilangan tartibda jamg‘arib boriladigan pensiya tizimi mablag‘lari;

jalb qilingan boshqa mablag‘lar.

6-bob. Bankning aksiyalari, Bank aksiyadorlarining huquqlari

29. Bankning barcha aksiyalari egasining nomi yozilgan oddiy aksiyalar hisoblanadi va elektron shakldagi hisobga olish registrlaridagi yozuvlar tarzida hujjatsiz shaklda chiqariladi.

30. Bankning aksiyadorlari qonunchilikda, shuningdek, ushbu Ustavda nazarda tutilgan quyidagi huquqlarga ega bo‘ladi:

Bank aksiyadorlarining reyestriga kiritilish;

depo hisobvarag‘idan o‘ziga taalluqli ko‘chirma olish;

Bank foydasining bir qismini dividendlar tarzida olish va olgan dividendini erkin tasarruf etish;

Bank tugatilgan taqdirda o‘zlariga tegishli ulushga muvofiq mol-mulkning bir qismini olish;

aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarida ovoz berish orqali Bankni boshqarishda ishtirok etish;

Bankning moliya-xo‘jalik faoliyati natijalari to‘g‘risida to‘liq va ishonchli axborotni belgilangan tartibda olish;

Bank aksiyadorlari o‘rtasida ularning huquqlarini amalga oshirish to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksida belgilangan tartibda korporativ shartnoma tuzish;

o‘ziga yetkazilgan zararning o‘rni qoplanishini belgilangan tartibda talab qilish;

qimmatli qog‘ozlarni olishda zarar ko‘rish, shu jumladan boy berilgan foyda ehtimoli bilan bog‘liq tavakkalchiliklarni o‘z hisobidan sug‘urta qilish.

Bank qonunchilikka va ushbu Ustavga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo‘lishi mumkin.

Aksiyador tomonidan huquqlarning amalga oshirilishi boshqa aksiyadorlarning huquqlari va qonun bilan qo‘riqlanadigan manfaatlarini buzmasligi lozim.

31. Bankning har bir oddiy aksiyasi aksiyadorga bir xil hajmdagi huquqlarni beradi.

Aksiyalarga haq to‘lash qonunchilik talablariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bankning tasarrufiga o‘tgan aksiyalar ovoz berish huquqini bermaydi va ovozlarni sanashda hisobga olinmaydi, ular bo‘yicha dividendlar yozilmaydi. Bunday aksiyalar ular Bank tasarrufiga o‘tgan paytdan boshlab bir yildan kechikmay sotilishi kerak, aks holda aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi belgilangan tartibda ustav kapitalini kamaytirish to‘g‘risida qaror qabul qilishi kerak. Ko‘rsatilgan muddatda realizatsiya qilinmagan aksiyalar bekor qilinishi kerak.

Bank amaldagi qonunchilik talablari asosida aksiyalarni qaytarib sotib olishni talab qilish huquqi yuzaga kelishiga sabab bo‘lgan qaror qabul qilingan sanadagi Bank ustav kapitalining o‘n foizidan oshmagan miqdorda sotib olishi mumkin.

32. Bank qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda ochiq va yopiq obuna o‘tkazish yo‘li bilan qo‘shimcha aksiyalarni joylashtirishga haqlidir.

Bank ustav kapitali ochiq obuna o‘tkazish yo‘li bilan qo‘shimcha aksiyalar chiqarish orqali oshirilganda aksiyadorlarning ustav kapitaldagi ulushiga mutanosib ravishda imtiyozli sotib olish huquqi nazarda tutiladi, bundan qonunchilikda belgilangan holatlar mustasno.

33. Bank aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish va shakllantirilgan reyestrni saqlash bank yoki qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga solish bo‘yicha vakolatli davlat organining topshirig‘i hamda aksiyadorlarning yozma murojaati asosida “Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” AJ tomonidan amalga oshiriladi. Reyestrning qaysi sanada shakllantirilishi reyestrni shakllantirish to‘g‘risidagi topshiriqda ko‘rsatiladi.

34. Bank qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda, shu jumladan O‘zbekiston Respublikasi tashqarisida obligatsiyalar va boshqa qimmatli qog‘ozlarni chiqarishi mumkin.

7-bob. Bank foydasini taqsimlash

35. Bank sof foydasi qonunchilikda nazarda tutilgan tartibda belgilanadi. Bank daromadidan tegishli soliqlar, budjetga boshqa majburiy to‘lovlar to‘lanadi.

36. Bankning sof foydasi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga binoan Bankning zaxira fondi va boshqa fondlarini shakllantirishga yo‘naltiriladi, aksiyadorlar o‘rtasida dividendlar shaklida taqsimlanadi shuningdek, qonunchilikka muvofiq boshqa maqsadlarda foydalaniladi.

Bank ustav kapitalining o‘n besh foizidan kam bo‘lmagan miqdorda zaxira fondi tashkil etiladi. Bankning umumiy zaxira fondi belgilangan miqdorga yetguniga qadar sof foydadan har yilgi majburiy ajratmalar orqali shakllantiriladi.

Bankning umumiy zaxira fondiga ajratmalar miqdori har yilgi taqsimlanadigan sof foydaning besh foizidan kam bo‘lmasligi kerak.

Dividendlar Bankning tasarrufida qoladigan sof foydasidan va (yoki) o‘tgan yillarning taqsimlanmagan foydasidan to‘lanadi.

37. Bankning hisobot yilida ko‘rgan zarari Bankning tegishli yoki umumiy zaxira fondlaridan shuningdek, ushbu zaxira fondlaridagi mablag‘lar yetmagan taqdirda avvalgi yillarning taqsimlanmagan foydasi hisobidan belgilangan tartibda qoplanadi.

38. Bank aksiyadorlarga dividendlar to‘lash, shuningdek Bankning Kuzatuv kengashi, boshqaruvi a’zolari va xodimlarini mukofotlash orqali foydani taqsimlashni quyidagi hollarda amalga oshirishga haqli emas:

prudensial normativlar Markaziy bank tomonidan belgilangan talablarga muvofiq bo‘lmaganda yoki ular mazkur taqsimlash oqibatida buzilganda;

to‘lovga qobiliyatsiz bo‘lganda yoki mazkur taqsimlash oqibatida to‘lovga qobiliyatsizlik alomatlari yuzaga kelganda;

Bank sof aktivlarining qiymati uning ustav kapitali va umumiy zaxira fondi summasidan kam bo‘lganda;

Markaziy bankning ijro etilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmasida aks ettirilgan, shu jumladan axborotni oshkor etish borasida ko‘rsatilgan kamchiliklar bartaraf etilmaganda yoki ularni bartaraf etish imkoniyati mavjud bo‘lmaganda;

Markaziy bankning foydani taqsimlamaslik to‘g‘risida Bankka nisbatan talabi mavjud bo‘lganda.

Bank foydani taqsimlash uchun quyidagi hollarda Markaziy bankning roziligini oladi:

aksiyadorlarga dividendlar to‘lash, shuningdek, Bankning Kuzatuv kengashi, boshqaruvi a’zolari va xodimlarini mukofotlash orqali foydani taqsimlash bo‘yicha to‘lovlarning umumiy summasi Bankning o‘z kapitalining o‘n foizidan ortig‘ini tashkil etganda;

joriy yoki o‘tgan chorakda va (yoki) moliya yilida zarar mavjud bo‘lganda.

8-bob. Bankni boshqarish

39. Quyidagilar Bankning boshqaruv organlari hisoblanadi:

Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi;

Kuzatuv kengashi;

Bank boshqaruvi.

40. Bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi (bundan buyon matnda aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi deb yuritiladi) Bankning yuqori boshqaruv organi hisoblanadi.

Bankning ovoz beruvchi aksiyalarining ellik foizidan ortig‘iga egalik qiluvchi yoxud ovoz beruvchi aksiyalari miqdori Bankning boshqa har bir aksiyadori ulushiga nisbatan ko‘p bo‘lgan hamda ovozi qaror natijasiga hal qiluvchi ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan aksiyador majoritar aksiyador deb e’tirof etiladi.

Agar majoritar aksiyadorga qarorlar Bankning va boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga zarar keltirishi oldindan ayon bo‘lsa, u mazkur qarorlarni shaxsiy manfaatlarini hisobga olib qabul qilmasligi, Bank boshqaruv organlarining yig‘ilishi kun tartibiga Bankning va boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga mos kelmaydigan masalalarni yoki hal etilishi Bankning va boshqa aksiyadorlarning manfaatlariga zarar yetkazishi oldindan ma’lum bo‘lgan masalalarni kiritmasligi shart.

Bankning majoritar aksiyadori ushbu bandda nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarmaslik natijasida Bankka va boshqa aksiyadorlarga yetkazilgan zarar uchun javobgar bo‘ladi.

41. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga quyidagilar kiradi:

1) Bank Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish yoki yangi tahrirdagi Bank Ustavini tasdiqlash;

2) Bankni qayta tashkil etish;

3) Bankni tugatish, tugatish komissiyasini tayinlash hamda oraliq va yakuniy tugatish balanslarini tasdiqlash;

4) Kuzatuv kengashining son tarkibini belgilash, ularning a’zolarini saylash va a’zolarning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

5) e’lon qilingan aksiyalarning eng ko‘p miqdorini belgilash;

6) Bankning ustav kapitalini kamaytirish;

7) o‘z aksiyalarini olish;

8) Bankning tashkiliy tuzilmasini Kuzatuv kengashi tomonidan ma’qullanganidan so‘ng tasdiqlash;

9) Bankning yillik hisobotini, shuningdek, Bank faoliyatining asosiy yo‘nalishlari va maqsadidan kelib chiqqan holda o‘rta muddatga va uzoq muddatga rivojlantirishning aniq muddatlari belgilangan strategiyasini tasdiqlash;

10) Bankning foydasi va zararlarini taqsimlash;

11) Kuzatuv kengashining o‘z vakolatlari doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan hisobotlarini eshitish;

12) Kuzatuv kengashi a’zolariga beriladigan haq va ularning o‘z funksiyalarini bajarishlari bilan bog‘liq xarajatlarini kompensatsiya qilish miqdorini belgilash;

13) aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash;

14) aksiyalarni maydalash va yiriklashtirish;

15) Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, Kuzatuv kengashi, Bank boshqaruvi, Ichki nazorat to‘g‘risidagi nizomlarni va boshqa tegishli hujjatlarni tasdiqlash;

16) qonunchilikka muvofiq yirik bitimlar hamda affillangan shaxslar bilan tuzilishi kutilayotgan bitimlar to‘g‘risida qaror qabul qilish;

17) Kuzatuv kengashining o‘z vakolatlari doirasiga kiradigan masalalar yuzasidan, shu jumladan Bankni boshqarishga doir qonunchilikda belgilangan talablarga rioya etilishi yuzasidan hisobotlarini eshitish;

18) imtiyozli huquqni qo‘llamaslik to‘g‘risida qonunchilikda nazarda tutilgan qarorni qabul qilish;

19) majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish uchun auditorlik tashkilotini belgilash, ushbu tashkilotning xizmatlariga to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish;

20) Kuzatuv kengashi tomonidan ma’qullanganidan so‘ng Bank boshqaruvi a’zolariga to‘lanadigan haq va (yoki) kompensatsiyalarni, shuningdek, ularning eng yuqori miqdorlarini belgilash;

21) qonunchilikda va ushbu Ustavda nazarda tutilgan boshqa masalalarni hal etish.

42. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga tegishli bo‘lgan masalalar Kuzatuv kengashiga hal etish uchun berilishi mumkin emas.

43. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga tegishli bo‘lgan masalalar Bank boshqaruviga hal etish uchun berilishi mumkin emas.

44. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida qarorlar yig‘ilishda qatnashgan ovoz beruvchi aksiyalar egalari bo‘lgan aksiyadorlarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi, qonunchilikka muvofiq bir ovozdan (malakali ko‘pchilik) qaror qabul qilish talab qilinadigan masalalar bundan mustasno.

45. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishlari yillik (hisobot) va navbatdan tashqari yig‘ilishlar tarzida o‘tkaziladi. Bank ovoz beruvchi aksiyalarining hammasi bo‘lib kamida bir foiziga egalik qiluvchi aksiyadorlar (aksiyador) aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi kun tartibiga moliya yili tugagandan keyin uch oydan kechiktirmay masalalar kiritishga hamda Kuzatuv kengashiga bu organning son tarkibidan oshmaydigan tarzda nomzodlar ko‘rsatishga haqli, bundan Kuzatuv kengashining mustaqil a’zoligiga nomzodlar ko‘rsatish mustasno.

46. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishlari har yili moliyaviy yil tugaganidan keyin kamida 2 oydan keyin va 6 oydan kechikmay chaqiriladi. Qoida tariqasida yillik umumiy yig‘ilishlar iyun oyining ikkinchi yarmida o‘tkaziladi.

47. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida Kuzatuv kengashining raisi raislik qiladi, u bo‘lmaganda esa Kuzatuv kengashining a’zolaridan biri raislik qiladi. Aksiyadorning vakili ham aksiyadorlar umumiy yig‘ilishida raislik qilishi mumkin.

48. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishida majburiy tartibda Bankning yillik biznes-rejasi, rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisoboti, yillik hisoboti, buxgalteriya balansi, foyda va zararlar hisobvarag‘i, foyda va zararlarni taqsimlash va belgilangan tartibda kun tartibiga kiritilgan boshqa masalalar ko‘rib chiqiladi. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishini o‘tkazish sanasi va tartibi, uning o‘tkazilishi to‘g‘risida aksiyadorlarni xabardor qilish tartibi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish chog‘ida aksiyadorlarga beriladigan materiallar ro‘yxati Kuzatuv kengashi tomonidan belgilanadi.

49. Aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishi Kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra uning o‘z tashabbusi asosida, shuningdek, yozma talab taqdim etilgan sanada Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabi asosida o‘tkaziladi.

Bank Kuzatuv kengashi Markaziy bank tomonidan aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazishni va kun tartibiga kiritilishi belgilangan masalalarni, shu jumladan Bank kapitalini Bankning moliyaviy barqarorligini ta’minlay oladigan miqdorgacha ko‘paytirish masalasini ko‘rib chiqishi lozim.

Agar mazkur talab bajarilmagan taqdirda Markaziy bank, Bank aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirishi va kun tartibini belgilashi mumkin.

Bank ovoz beruvchi aksiyalarining kamida besh foiziga egalik qiluvchi aksiyadorning (aksiyadorlarning) yozma talabiga ko‘ra aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini chaqirish aksiyadorlarning navbatdan tashqari umumiy yig‘ilishini o‘tkazish haqida yozma talab taqdim etilgan kundan e’tiboran o‘ttiz kundan kechiktirmay Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

50. Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan tasdiqlanadigan reglamentga muvofiq o‘tkaziladi.

51. Kuzatuv kengashi Bank faoliyatiga umumiy rahbarlikni amalga oshiradi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining vakolatiga tegishli bo‘lgan masalalarni hal etish bundan mustasno.

Kuzatuv kengashi boshqaruvga oid qarorlar qabul qilish jarayonida nazorat va tekshiruv vazifasini bajaradi hamda umuman Bank faoliyati va moliyaviy barqarorligi uchun javobgar hisoblanadi.

Kuzatuv kengashi Bankni samarali va tadbirli boshqarishni, shu jumladan Bank boshqaruvi a’zolari o‘rtasida vakolatlarning hamda javobgarlikning taqsimlanishini, manfaatlar to‘qnashuvining oldi olinishini va bartaraf etilishini ta’minlaydigan boshqaruv tashkiliy tuzilmasini belgilaydi hamda uning joriy etilishi ustidan nazorat va tekshiruvni amalga oshiradi.

Kuzatuv kengashi a’zolari Bankning korporativ boshqaruvni oqilona tashkil etishga ko‘maklashishi hamda o‘z vakolatlarini va majburiyatlarini bajarish chog‘ida Bankning, uning omonatchilari va aksiyadorlarining qonuniy manfaatlarini inobatga olishi, shuningdek, Markaziy bank bilan samarali hamkorlikni ta’minlashi kerak.

52. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga quyidagilar kiradi:

1) Bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida Bank boshqaruvining hisobotini muntazam ravishda eshitib borgan holda Bank faoliyatining ustuvor yo‘nalishlarini belgilash;

2) korporativ boshqaruv siyosati (qoidalari)ni, Bankning boshqa ichki siyosatlarini, shu jumladan risk (tavakkalchilik)larni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to‘g‘risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini tasdiqlash hamda ularning amalga oshirilishi ustidan nazorat qilish;

3) aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sana, vaqt va joyni belgilash;

4) yillik va navbatdan tashqari aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishlarni chaqirish, qonunchilikda nazarda tutilgan hollar bundan mustasno;

5) aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi o‘tkazilishi haqida xabar qilish uchun Bank aksiyadorlarining reyestrini shakllantirish sanasini belgilash;

6) aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi kun tartibini tayyorlash (tasdiqlash);

7) Bank Ustaviga o‘zgartirishlar va qo‘shimchalar kiritish (yoki yangi tahrirdagi Ustavni tasdiqlash) to‘g‘risida takliflarni ko‘rib chiqish uchun aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga kiritish;

8) Bank boshqaruvini tuzish, Bank boshqaruvi a’zolarini, shu jumladan, Bank boshqaruvi raisini saylash (tayinlash), shuningdek, ularning vakolatlarini muddatidan ilgari tugatish;

9) Bankning korporativ obligatsiyalari, shu jumladan aksiyalarga ayirboshlanadigan obligatsiyalar chiqarish, shuningdek, boshqa qarz majburiyatlarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

10) Bankning tashkiliy tuzilmasini, Bank boshqaruvi a’zolariga to‘lanadigan haq va kompensatsiyalarning eng yuqori miqdorlarini va ularga o‘zgartirish kiritish bo‘yicha masalalarni ma’qullash va aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga kiritish, Bank boshqaruvi a’zolariga to‘lanadigan haq va kompensatsiya tartiblarini belgilash;

11) Bankning zaxira va boshqa fondlaridan foydalanish bo‘yicha qaror qabul qilish;

12) Bankning ichki auditi, ichki nazorat, korrupsiyaga qarshi kurashish va risk (tavakkalchilik)larni boshqarish xizmatlari to‘g‘risidagi nizomlarni tasdiqlash;

13) Bank boshqaruvi faoliyati to‘g‘risidagi hujjatlarni tasdiqlash;

14) Bankning filiallarini va vakolatxonalarini tashkil etish (tugatish) to‘g‘risida qarorlar qabul qilish;

15) Bankning yillik hisobotlarini ko‘rib chiqish va aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan o‘n kundan kechiktirmay (oldin) dastlabki tarzda tasdiqlash;

16) aksiyalar bo‘yicha dividendlar miqdori va ularni to‘lash shakli va tartibi bo‘yicha tavsiyalar berish;

17) Bank mol-mulkining bozor qiymatini belgilashni tashkil etish;

18) Bankning sho‘ba va qaram bo‘lgan korxonalarini tashkil etish hamda tijorat va notijorat tashkilotlarga ulush kiritish va bitimlarni qonunchilikda belgilangan tartibda tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

19) har chorakda Bank boshqaruvi raisining Bank faoliyati natijalari to‘g‘risidagi ma’ruzasi (hisoboti) hamda Bankning Ichki audit, Ichki nazorat va Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatlarining, Risk (tavakkalchilik) bo‘linmasi rahbarlarining hisobotlarini eshitish;

20) Ichki audit, Ichki nazorat va Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatlarini hamda Risk (tavakkalchilik)larni boshqarish bo‘linmasini tashkil etish va faoliyatini nazorat qilish;

21) Auditorlik tekshiruvini o‘tkazish (majburiy auditorlik tekshiruvi bundan mustasno), auditorlik tashkilotini belgilash, uning xizmatlariga

to‘lanadigan eng ko‘p haq miqdori va u bilan shartnoma tuzish (shartnomani bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish;

22) qonunchilikka muvofiq yirik bitimlar hamda affillangan (aloqador) shaxslar bilan tuzilishi kutilayotgan bitimlar to‘g‘risida qaror qabul qilish;

23) Bankning ustav kapitalini ko‘paytirish, shuningdek, Bank Ustaviga Bankning ustav kapitalini ko‘paytirish hamda Bankning e’lon qilingan aksiyalari sonini kamaytirish bilan bog‘liq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish masalalarini hal qilish;

24) aksiyalarni joylashtirish (qimmatli qog‘ozlarning birja bozoriga va uyushgan birjadan tashqari bozoriga chiqarish) narxini belgilash;

25) qimmatli qog‘ozlarning hosilalarini chiqarish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

26) Bankning korporativ obligatsiyalarini va boshqa qimmatli qog‘ozlarini qaytarib sotib olish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

27) Bankning kelgusi yilga mo‘ljallangan biznes-rejasini Kuzatuv kengashining majlisida joriy yilning 1-dekabridan kechiktirmay tasdiqlash;

28) Korporativ boshqaruv xizmati hamda uning faoliyati tartibini belgilovchi nizomni tasdiqlash va Korporativ maslahatchini tayinlash;

29) Bankning uzoq muddatli moliyaviy manfaatlarini va Markaziy bank tomonidan kapitalga nisbatan belgilangan talablarni hisobga olgan holda prudensial talablarga rioya etilishini ta’minlash;

30) qaror qabul qilishda oxirgi hisobot davri bo‘yicha Bank sof aktivlari miqdorining bir foizidan ortiq miqdorda homiylik, xayriya (moliyaviy yordam) yoki qaytarmaslik sharti bilan yordam ko‘rsatish to‘g‘risida qaror qabul qilish;

31) Amaldagi qonunchilik va mazkur Ustavda Kuzatuv kengashi vakolatiga kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish.

O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq Kuzatuv kengashining vakolatlari doirasiga, shuningdek, quyidagilar kiradi:

aktivlarni tasniflash asosida aktivlar bo‘yicha ehtimoldagi zararlarga qarshi yaratiladigan zaxiralar shakllantirilishi ustidan nazorat qilish, shuningdek bankning kapital va umumiy zaxiralarining yetarli darajada saqlab turilishini ta’minlash;

manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish va uni bartaraf etish tartibini tasdiqlash;

Bankning moliyaviy holatini tiklash rejalarini tasdiqlash;

Bank boshqaruvi ustidan nazoratni amalga oshirish;

Bankning biznes-rejasi bajarilishini nazorat qilish hamda har chorakda Bankning faoliyati natijalari to‘g‘risida Bank boshqaruvining hisobotini eshitish;

Bank Ichki audit xizmatining choraklik hisobotlari asosida Bank boshqaruvi tomonidan Bank strategiyalari va siyosatlariga rioya etilishini baholashdan o‘tkazish;

Bank boshqaruvi tomonidan taqdim etilgan axborotni, takliflarni va tushuntirishlarni o‘rganish, muhokama qilish hamda ular bo‘yicha bahslashish;

Bank faoliyatini boshqarish tizimi samaradorligini, shu jumladan, Bank boshqaruvi prinsiplari monitoringini va ularni davriy baholashni amalga oshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish uchun tegishli choralarni ko‘rish;

bir yilda kamida bir marta amalga oshirilgan nazorat va tekshiruv faoliyati to‘g‘risida aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga hisobot taqdim etish;

yillik moliyaviy hisobotlarni dastlabki tasdiqlash hamda buxgalteriya hisobi va moliyaviy hisobotlar tizimining yaxlitligini ta’minlash.

53. Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar hal qilish uchun Bank boshqaruviga o‘tkazilishi mumkin emas.

54. Quyidagilar Kuzatuv kengashining majburiyatlari hisoblanadi:

o‘z vakolatlarini Bank aksiyadorlari manfaatlarini ko‘zlab amalga oshirish va Markaziy bank bilan samarali hamkorlikni ta’minlash;

Bankka o‘z vakolatlariga mos ravishda rahbarlik qilishni ta’minlash;

Bankning yetarli darajadagi kapitallashuvini ta’minlash;

Bank faoliyati strategiyasini shakllantirish;

Bankni rivojlantirish bo‘yicha qabul qilingan biznes-rejalar ijrosini nazorat qilish;

Ichki audit xizmati faoliyat ko‘rsatishini tashkil etish;

korporativ boshqaruv bo‘yicha qonunchilik talablariga rioya qilinishi to‘g‘risidagi hisobotni aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishiga taqdim etish.

55. Kuzatuv kengashi a’zolari soni 7 (yetti) kishidan iborat bo‘lishi hamda Kuzatuv kengashi a’zolarining ko‘pchiligi (kamida 4 (to‘rt) nafari) Bankka aloqador bo‘lmagan mustaqil a’zo bo‘lishi kerak, bundan ularning Kuzatuv kengashidagi a’zoligi mustasno. Kuzatuv kengashining mustaqil a’zoligiga nomzodlar, qoida tariqasida, tanlov asosida ko‘rsatiladi va ular aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan saylanadi.

Kuzatuv kengashi a’zolari o‘z mulohazalarining mustaqilligi bo‘yicha talablarga rioya etishi kerak.

Quyidagi hollarda shaxs Kuzatuv kengashi a’zoligiga saylanishi mumkin emas yoki saylangan shaxs Kuzatuv kengashi a’zoligi huquqidan mahrum etiladi, agar:

shaxs O‘zbekiston Respublikasi hududida ikki yoki undan ortiq bankning kuzatuv kengashi a’zosi bo‘lsa yoki a’zo bo‘lish niyatida bo‘lsa, bundan mazkur banklar bir bank guruhiga tegishli bo‘lgan hollar mustasno;

shaxsning vakolatlari Markaziy bank talabiga ko‘ra muddatidan ilgari tugatilgan bo‘lsa.

Kuzatuv kengashining mustaqil a’zolari bilan shartnoma Bank Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tuziladi.

Kuzatuv kengashining mustaqil a’zolari takroran qayta saylanganda ular bilan tuzilgan shartnoma muddati uzaytirilishi bo‘yicha qo‘shimcha kelishuv tuziladi va Bank Kuzatuv kengashi raisi tomonidan rasmiylashtiriladi.

Tuziladigan shartnoma shartlarida mustaqil a’zoning huquq va majburiyatlari, haq va kompensatsiyalar miqdori hamda ularni to‘lab berish shartlari shuningdek, shartnomaning amal qilish muddatlari belgilanishi mumkin.

Bank Kuzatuv kengashining mustaqil a’zolari Kuzatuv kengashining boshqa a’zolari bilan bir qatorda amaldagi qonunchilik va ushbu Ustavda belgilangan teng huquq va majburiyatlarga egadir.

56. Kuzatuv kengashi raisi Kuzatuv kengashi a’zolaridan saylanadi. Kuzatuv kengashi raisi bilan shartnoma tuzish Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi qarorida vakolat berilgan shaxs tomonidan amalga oshiriladi.

Kuzatuv kengashi raisining o‘rinbosari Kuzatuv kengashi a’zolari orasidan Kuzatuv kengashi raisi tomonidan tayinlanadi.

57. Bank boshqaruvi a’zolari va boshqaruv raisi, Bankning sho‘ba va tobe xo‘jalik jamiyatlarida mehnat shartnomasi (kontrakt) bo‘yicha ishlayotgan shaxslar va ushbu jamiyatlar boshqaruv organlarining a’zolari Bank Kuzatuv kengashiga saylanishi mumkin emas.

58. Kuzatuv kengashi a’zolari uch yil muddatga saylanadi va cheklanmagan tarzda qayta saylanishlari mumkin.

Kuzatuv kengashiga ko‘rsatilayotgan nomzodlar aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi tomonidan belgilangan tartibda saylanadi, bunda nomzodlar lavozimga (kirishishidan oldin) tayinlanishida Markaziy bank va qonunchilikda belgilangan tartibda Bank aksiyadorlari bilan kelishib olinadi.

Markaziy bank Bank Kuzatuv kengashining a’zoligiga ko‘rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin kelishib oladi.

59. Kuzatuv kengashi raisi bo‘lmaganda uning funksiyalarini uning o‘rinbosari yoki Kuzatuv kengashi a’zolaridan biri amalga oshiradi.

60. Kuzatuv kengashi majlisi Kuzatuv kengashi raisi tomonidan uning o‘z tashabbusiga ko‘ra yoki:

Bank aksiyadorlari;

Markaziy bank;

Kuzatuv kengashi a'zosi;

Bank boshqaruvi;

Bank Ichki audit xizmati rahbari;

Ichki nazorat xizmati rahbari;

Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati rahbari;

Risk (tavakkalchilik) bo'linmasi rahbari;

Korporativ maslahatchi;

Bankning tashqi auditori talabi bo'yicha chaqiriladi.

61. Kuzatuv kengashi majlislarini o'tkazish, ovoz berish va qarorlar qabul qilish tartibi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlanadigan Kuzatuv kengashi to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

62. Kuzatuv kengashi vakolatiga kiruvchi masalalar bo'yicha qarorlar ko'pchilik, ovozlarning kamida uchdan ikki qismi bilan qabul qilinadi, Kuzatuv kengashi a'zolarining ovozlari teng bo'lgan taqdirda Kuzatuv kengashi tomonidan qaror qabul qilishda Kuzatuv kengashi raisining ovozi hal qiluvchi hisoblanadi. Kuzatuv kengashi majlisida masalalarni hal qilishda Kuzatuv kengashining har bir a'zosi bir ovozga ega bo'ladi. Kuzatuv kengashi majlisini o'tkazish uchun kvorum Kuzatuv kengashiga saylangan a'zolarining kamida 75 (yetmish besh) foizini tashkil qilishi kerak.

63. Ovoz berish huquqi Kuzatuv kengashining bir a'zosi tomonidan Kuzatuv kengashining boshqa a'zosiga berilishiga yo'l qo'yilmaydi.

64. Bankning joriy faoliyatiga rahbarlik qilish kollegial ijro etuvchi organ - rais rahbarligida ishlaydigan 7 (yetti) nafar a'zodan iborat Bank boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi.

Bank boshqaruvi a'zolarini tayinlash (tasdiqlash) xorijiy menejerlar ham ishtirok etishi mumkin bo'lgan tanlov asosida amalga oshirilishi mumkin.

65. Bank boshqaruvi raisi Kuzatuv kengashi tomonidan saylanadi (tayinlanadi). Bank boshqaruvining boshqa a'zolari boshqaruv raisining taqdimnomasiga ko'ra Kuzatuv kengashi tomonidan qonunchilikda va ushbu Ustavda belgilangan tartibda saylanadi (tayinlanadi).

Boshqaruv raisi va boshqaruv a'zoligiga ko'rsatilayotgan nomzodlar lavozimga tayinlanishida (kirishishidan oldin) Markaziy bank va qonunchilikda belgilangan tartibda Bank aksiyadorlari bilan kelishib olinadi.

Markaziy bank Bank boshqaruvi a'zoligiga va hamda muhim ahamiyatga ega xodimlar ko'rsatilayotgan nomzodlarni ularning lavozimga kirishishidan oldin kelishib oladi.

Agar muhim ahamiyatga ega xodimlarni obyektiv sabablarga ko‘ra oldindan kelishib olishning imkoni bo‘lmasa, Bank keyinchalik rozilik olish uchun 30 kun ichida so‘rovnoma yuboradi.

Bank boshqaruvi tarkibiga kirgan shaxsning vakolatlari muddatidan ilgari tugatilgan taqdirda, Kuzatuv kengashining qarori bilan tayinlangan shaxs uning vazifalarini vaqtincha bajarib turishiga yo‘l qo‘yiladi.

66. Bank boshqaruvi:

1) Bankning joriy faoliyatiga tezkor rahbarlikni tashkil etadi va amalga oshiradi;

2) Bank boshqaruvi vakolatiga kiruvchi masalalar bo‘yicha aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining va Kuzatuv kengashining qarorlarini bajarilishini tashkil etadi va ta’minlaydi;

3) Bank markaziy apparati bo‘linmalari rahbarlari, filiallari, mintaqaviy va Bank xizmatlari markazlari rahbarlarining Bank faoliyatining aniq yo‘nalishlari bo‘yicha tegishli davrlar va ishlar uchun faoliyat yakunlari to‘g‘risidagi shuningdek, ular faoliyatini taftish qilish va tekshirish natijalari bo‘yicha hisobotlarini ko‘rib chiqadi;

4) Bank bo‘linmalari ish amaliyotiga eng ilg‘or bank texnologiyalari, bank ishlarini kompleks avtomatlashtirish loyihalari joriy etilishini tashkil etadi, zamonaviy bank infratuzilmasi yaratilishini ta’minlaydi;

5) Bankning filiallari, mintaqaviy va Bank xizmatlari markazlari va boshqa alohida bo‘linmalari tarmog‘ini takomillashtirish bo‘yicha ishlarni belgilangan tartibda tashkil etadi va amalga oshiradi;

6) Bank markaziy apparati bo‘linmalarini, Bankning mintaqaviy va Bank xizmatlari markazlarini hamda boshqa alohida bo‘linmalarini tashkil etish (tugatish) to‘g‘risida qarorlar qabul qiladi;

7) Bank mijozlariga ko‘rsatiladigan xizmatlar bo‘yicha foiz stavkalarini va vositachilik haqi miqdorini ishlab chiqadi hamda tasdiqlaydi;

8) zararlar miqdorini kamaytirish maqsadida Bank aktivlarining diversifikatsiyalanishini amalga oshiradi;

9) Bank tomonidan Markaziy bank belgilagan iqtisodiy normativlarga, Markaziy bankda majburiy zaxiralarni shakllantirish yuzasidan talablarga rioya qilinishini ta’minlaydi;

10) Bankning kapitali va likvidli resurslari yetarli darajada bo‘lishini, shubhali va bekor turgan aktivlarga qarshi ularni klassifikatsiya qilish asosida zaxiralar yaratilishini ta’minlaydi;

11) qonunchilikda belgilangan tartibga va xalqaro standartlarga muvofiq Bank buxgalteriya hisobi va hisoboti yuritilishi hamda moliyaviy hisobotini tayyorlashni tashkil etadi;

12) Bankning kadrlar tarkibi tayyorlanishini va qayta tayyorlanishini ta'minlaydi;

13) Kuzatuv kengashi va aksiyadorlarning birinchi talabi bo'yicha moliyaviy hisobotni va Bank faoliyati to'g'risidagi boshqa axborotlarni o'z vaqtida taqdim etadi;

14) Kuzatuv kengashi oldida Bank faoliyatining moliyaviy natijalari uchun belgilangan tartibda hisobot beradi;

15) Kuzatuv kengashida ko'rib chiqish uchun Bankni rivojlantirish strategiyasi, Bankning tashkiliy-boshqaruv tuzilmasini takomillashtirish masalalari, Kuzatuv kengashi vakolatlariga taalluqli boshqa masalalar bo'yicha takliflar kiritadi;

16) Bank bo'linmalari tomonidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga rioya qilinishi ustidan nazorat qiladi;

17) strategik maqsadlarni, korporativ boshqaruv siyosatini, Bankning boshqa ichki siyosatlariga rioya qilish, shu jumladan tavakkalchiliklarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va tavakkalchiliklar to'g'risida xabardor etish, kapitalning yetarliligini lozim darajada saqlab turish siyosatini amalga oshiradi;

18) Bankning tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan vakolatlarni va javobgarlikni Bank xodimlari o'rtasida o'z vakolatlari doirasida taqsimlashni ta'minlaydi;

19) Bank xodimlarining faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

20) Bankning qabul qilingan yillik biznes-rejasini bajarishi, shuningdek Bank aksiyadorlarining umumiy yig'ilishiga va Kuzatuv kengashiga bajarilgan ishlar, Bankka nisbatan qo'llanilgan choralar hamda sanksiyalar to'g'risidagi hisobotni davriy ravishda taqdim etadi;

21) Bankning joriy faoliyati masalalarini tartibga soladigan ichki hujjatlarni tasdiqlaydi, tasdiqlanishi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi vakolatiga tegishli bo'lgan ichki hujjatlar bundan mustasno;

22) ishchi organlarni, shu jumladan qonunchilikka muvofiq Bank qo'mitalarini tuzadi, ularning vakolatlarini belgilaydi, ular to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlaydi;

23) Balans qiymati Bank sof aktivlari miqdorining 15 (o'n besh) foizigacha tashkil etgan bitimlar jumladan, mol-mulklarni sotish (realizatsiya qilish) to'g'risida qaror qabul qiladi;

24) qaror qabul qilishda oxirgi hisobot davri bo'yicha Bank sof aktivlari miqdorining bir foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda homiylik, xayriya (moliyaviy yordam) yoki qaytarmaslik sharti bilan yordam ko'rsatish to'g'risida qaror qabul qiladi, bunda homiylik, xayriya (moliyaviy yordam) yoki qaytarmaslik sharti

bilan yordam ko‘rsatishning jami miqdori joriy yil uchun tasdiqlangan biznes-reja ko‘rsatkichlaridan oshmasligi;

25) Bank faoliyatining boshqa masalalarini ko‘rib chiqadi va hal etadi;

26) Bank boshqaruvining vakolatiga Bankning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilishga doir barcha masalalar kiradi, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining yoki Kuzatuv kengashining vakolat doirasiga kiritilgan masalalar bundan mustasno.

67. Bank boshqaruvi Bank Ustavi asosida ish yuritadi.

68. Bankning boshqaruvi majlislarini o‘tkazishni boshqaruv raisi tashkil etadi, u Bank nomidan vakolati doirasidagi hujjatlarni hamda Bank boshqaruvi majlisi bayonnomalarini imzolaydi.

69. Boshqaruv raisi:

Bank nomidan ishonchnomasiz ish yuritadi, shu jumladan uning manfaatlarini ifodalaydi;

Bank nomidan bitimlar tuzadi;

Bankning markaziy apparati bo‘linmalari rahbarlari va xodimlarini, filial, vakolatxona hamda mintaqaviy markazlar rahbarlarini ishga qabul qiladi va mehnat shartnomasini bekor qiladi, shtatlarni tasdiqlaydi;

Bankning vakolatli vakilini tayinlaydi va Bank manfaatlarini ifodalash maqsadida ishonchnoma taqdim etadi;

Bankning barcha xodimlari bajarishi majburiy bo‘lgan buyruq va farmoyishlar chiqaradi, ko‘rsatma va topshiriqlar beradi.

70. Bank boshqaruvi a’zolarining huquq va majburiyatlari tegishincha, ushbu Ustavda, Bank boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomda hamda ularning har biri Bank bilan uch yil muddatga tuzadigan shartnomada belgilanib, shartnomaning amal qilish muddatini uzaytirish yoki uni bekor qilish mumkinligi to‘g‘risida har yili qaror qabul qilinadi.

71. Bank boshqaruvi a’zolariga to‘lanadigan rag‘batlantirish miqdori va uni to‘lash shartlari Bank faoliyatining samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) ijrosiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri bog‘liq bo‘ladi.

Bank va Bank boshqaruvi a’zolarining faoliyati samaradorlik ko‘rsatkichlari (KPI) qonunchilik hujjatlariga muvofiq tegishli vakolatli organ tomonidan belgilanadi (tasdiqlanadi).

72. Bank boshqaruvi va Bankning tegishli bo‘linmalari rahbarlari Bank hisobotidagi axborotning ishonchliligi uchun javob beradi.

73. Bank boshqaruvi Kuzatuv kengashiga hisobot beradi.

74. Bank boshqaruvi raisi bilan mehnat shartnomasini Bank nomidan Kuzatuv kengashi raisi yoki Kuzatuv kengashi vakolat bergan shaxs imzolaydi,

boshqaruv raisining o‘rinbosarlari va boshqaruv a’zolari bilan mehnat shartnomalarini Bank boshqaruvi raisi imzolaydi.

75. Bankning filiallari boshqaruvchilari va bosh buxgalterlari, mintaqaviy markazlarining rahbarlari Bank boshqaruvi raisi tomonidan tayinlanadi hamda boshqaruv raisi Bank nomidan Bank filiallari boshqaruvchilari va bosh buxgalterlari hamda mintaqaviy markazlarining rahbarlari bilan mehnat shartnomalarini tuzadi.

Bunda, ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi Bank mintaqaviy markazlarining rahbarlari bank xizmatlari markazlari rahbarlarini va xodimlarini ishga qabul qiladi va mehnat shartnomasini bekor qiladi.

76. Bank boshqaruvi raisi yoki Bank filiali rahbarlari hamda ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi mintaqaviy markaz rahbari xodimlar bilan mehnat shartnomasini ushbu Ustavga va qonunchilikka muvofiq tuzadilar.

77. Boshqaruv raisi va boshqaruv a’zolari Bank faoliyati yuzasidan o‘z vakolatlari doirasida javob beradi.

Bank boshqaruvi majlislarini Bank boshqaruvi raisi, rais bo‘lmagan holda uning o‘rinbosarlaridan biri olib boradi va Bank boshqaruvi majlisi bayonnomalarini imzolaydi.

Bank boshqaruvi qarorlari va bayonnomalari boshqaruv a’zolarining uchdan ikki qismi tomonidan imzolanganda vakolatli hisoblanadi. Bank boshqaruvi Qarorlari va majlis bayonnomalarida ko‘rilayotgan masalalar bo‘yicha boshqaruv a’zolarining ovozlari teng bo‘lgan taqdirda Bank boshqaruvi tomonidan qaror qabul qilishda boshqaruv raisining (yoki majlisda raislik qiluvchining) ovozi hal qiluvchi hisoblanadi.

Bank boshqaruvi majlisi video-konferens-aloqa tartibida o‘tkazilishi mumkin.

78. Bank boshqaruvi zaruriyat tug‘ilishi bilan Bank aksiyadorlariga, Bankning yillik hisobotlarini hamda Bankning moliyaviy faoliyatiga taalluqli boshqa ma’lumotlarni taqdim etishi shart.

9-bob. Kuzatuv kengashi va Boshqaruv a’zolarining javobgarligi

79. Kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi a’zolari o‘z huquqlarini amalga oshirishda hamda o‘z majburiyatlarini bajarishda Bankning manfaatlarini ko‘zlab ish tutadilar va belgilangan tartibda javobgar bo‘ladilar.

Kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi a’zolarining majburiyatlari, shu jumladan ularning fidutsiar majburiyatlari, O‘zbekiston Respublikasining “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonunining 81-moddasiga muvofiq belgilanadi.

Agar ushbu band qoidalariga muvofiq bir nechta shaxs javobgar bo‘lsa, ularning Bank oldidagi javobgarligi solidar javobgarlik bo‘ladi.

80. Bankka zarar yetkazilishiga sabab bo‘lgan qarorga ovoz berishda ishtirok etmagan yoki ushbu qarorga qarshi ovoz bergan Bank Kuzatuv kengashi va boshqaruv a’zolari javobgar bo‘lmaydi, qonunchilikda belgilangan holatlar bundan mustasno.

Kuzatuv kengashi va Bank boshqaruvi a’zolarining javobgarligini sug‘urtalash mumkin va O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablari asosida javobgarlikni sug‘urtalash to‘g‘risida qaror qabul qilish, sug‘urta limitlarini va sug‘urta kompaniyasini belgilash Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi.

10-bob. Bank tomonidan yirik bitimlar va affillangan shaxslar bilan bitimlar tuzish

81. Bank yirik bitimlar tuzishda va bitim tuzilishidan manfaatdor (affillangan) shaxslar bilan tuziladigan bitimlar qonunchilikka muvofiq amalga oshiriladi.

Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada Bank sof aktivlari miqdorining o‘n besh foizidan ellik foizigachasini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qaror Kuzatuv kengashining a’zolari tomonidan bir ovozdan qabul qilinadi, bunda Kuzatuv kengashidan chiqib ketgan a’zolarning ovozi inobatga olinmaydi.

Yirik bitim tuzish masalasi bo‘yicha Kuzatuv kengashining yakdilligiga erishilmagan taqdirda yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi masala Kuzatuv kengashining qaroriga ko‘ra aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishiga hal qilishi uchun olib chiqilishi mumkin.

Balans qiymati yoki olish qiymati bitim tuzish to‘g‘risida qaror qabul qilinayotgan sanada Bank sof aktivlari miqdorining ellik foizidan ortig‘ini tashkil etuvchi mol-mulk xususida yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qaror aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi tomonidan qabul qilinadi.

Yirik bitim Bank aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi yoki Kuzatuv kengashi ushbu bitim bo‘yicha qaror qabul qilganidan keyin Bank boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. Bunda yirik bitim tuzish to‘g‘risidagi qaror mol-mulkning qonunchilikka muvofiq baholovchi tashkilot tomonidan belgilangan bozor qiymati hisobga olingan, mustaqil tashqi auditorlik tashkiloti tomonidan bitimning shartlari o‘rganilgan holda majburiy tartibda qabul qilinadi.

82. Ushbu talablar buzilgan holda tuzilgan bitimlar sud qaroriga ko‘ra haqiqiy emas deb topilishi mumkin.

11-bob. Bankning hisobi, hisoboti va hujjatlarni saqlash

83. Bank buxgalteriya hisobini Markaziy bank tomonidan belgilangan qoidalar asosida ishlab chiqilgan ichki hisob siyosatiga muvofiq tashkil etadi va

yuritadi hamda davlat boshqaruvining tegishli organlariga moliyaviy hisobotni qonunchilikda belgilangan tartibda taqdim etadi.

Bank o‘z faoliyati to‘g‘risidagi hisobotlarni Markaziy bank tomonidan belgilangan shakllarda, tartibda va muddatlarda tuzadi hamda Markaziy bankka taqdim etadi. Bank moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlarini qo‘llaydi.

84. Bank Xalqaro moliyaviy hisobot standartlariga muvofiq tuzilgan yillik moliyaviy hisobotni u Xalqaro audit standartlariga muvofiq tashqi auditdan o‘tkazilganidan keyin, aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘tkaziladigan sanadan kamida ikki hafta oldin e’lon qiladi.

85. Moliyaviy (buxgalteriya) hisobotining ishonchliligini, uning moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga muvofiqligini tekshirish va tasdiqlash uchun Bank shartnoma asosida qonunchilikka muvofiq auditorlik faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo‘lgan auditorlik tashkilotini jalb qiladi. Auditorlik tashkiloti qonunchilikka, ushbu Ustavga va Bankning ichki hujjatlariga muvofiq auditorlik tashkilotlarini tanlash bo‘yicha tanlov yakunlariga ko‘ra aksiyadorlar umumiy yig‘ilishiga, Kuzatuv kengashiga Bank boshqaruvi tomonidan tavsiya qilinadi.

86. Bankning moliyaviy yili 1-yanvardan boshlanadi va 31-dekabrda tugaydi.

87. Bank Bank faoliyati davomida shakllanadigan hujjatlarning lozim darajada hisobga olinishi, saqlanishi va undan foydalanilishini ta’minlaydi.

Bank qonunchilikda belgilangan tartibda va muddat mobaynida hujjatlarning saqlanishini ta’minlaydi.

Bank hujjatlari qonunchilikda belgilangan tartibda davlat tomonidan saqlash uchun beriladi.

12-bob. Bankning moliya faoliyatini nazorat qilish

88. Bankning moliyaviy faoliyatini baholash Kuzatuv kengashi va Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasiga hisobdor bo‘lgan Ichki audit xizmati tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

89. Ichki audit xizmati Bankda ichki auditni doimiy tarzda amalga oshiruvchi mustaqil tarkibiy bo‘linma hisoblanadi.

90. Bankning ichki audit xizmati Bank boshqaruvi, filiallari va vakolatxonalari, mintaqaviy va Bank xizmatlari markazlari tomonidan qonunchilikka, ushbu Ustavga va boshqa hujjatlarga rioya etilishini, buxgalteriya hisobida va moliyaviy hisobotlarda ma’lumotlarning to‘liq hamda ishonchli tarzda aks ettirilishi ta’minlanishini, Bank operatsiyalarini amalga oshirishning belgilangan qoidalari va tartib-taomillariga rioya etilishini, aktivlarning saqlanishini, shuningdek, Bankni boshqarish yuzasidan qonunchilikda

belgilangan talablarga rioya etilishini tekshirish hamda korporativ boshqaruv tizimlarining samaradorligini va ularning to‘g‘ri yo‘lga qo‘yilganligini baholaydi.

91. Ichki audit xizmati Kuzatuv kengashi va Auditorlik va korrupsiyaga qarshi kurashish qo‘mitasini Bankning joriy holati va uning ichki nazorat tizimi samaradorligiga oid haqqoniy va mustaqil ma’lumotlar, ichki nazorat, tavakkalchiliklarni boshqarish tizimlari va Bank biznes-jarayonlari tashkil qilinishi samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ishlab chiqish va boshqa qonunchilik hamda mazkur bo‘linmaning nizomida belgilangan vazifalarga mas’ul hisoblanadi.

92. Ichki nazorat va Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatlari Bankda amaldagi qonunchilik talablariga muvofiq jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirishga va korrupsion holatlarni oldini olishga qaratilgan ichki nazorat tizimini o‘rnatishda mas’ul hamda aniqlangan holatlar bo‘yicha boshqaruv organlariga hisobdor hisoblanadi.

93. Bank boshqaruvi a’zolari, Bank boshqaruviga bo‘ysunuvchi barcha xodimlar, shuningdek Bankka aloqador boshqa shaxslar auditorlik tekshiruvini o‘tkazishda qatnashishga haqli emas.

94. Bankning ichki audit xizmati ichki nazoratni, shu jumladan, 50 foizdan ziyod ulushi Bankka tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar bilan o‘tkaziladigan operatsiyalar ustidan tahlil va baholashni amalga oshiradi.

13-bob. Bank tizimida manfaatlar to‘qnashuvini oldini olish va tartibga solish

95. Bank aksiyadorlari, Kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolari hamda Bank xodimlari qonunchilik va ushbu Ustavda belgilangan o‘zlarining xizmat majburiyatlarini bajarishida va (yoki) Bankning manfaatlarini ifodalashda manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risidagi qonunchilik va Bankning ichki siyosatlarida belgilangan tamoyillarga amal qilishlari, shuningdek, manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan vaziyatlardan o‘zlarini saqlashlari shart.

96. Bank aksiyadorlari, Kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolari qaror qabul qilish jarayonida manfaatlar to‘qnashuvi to‘g‘risida belgilangan tartibda Bankni xabardor qilishi, shuningdek, agar shaxsiy manfaatlar mavjud bo‘lgan masalalar yuzasidan qarorlar bo‘yicha ovoz berishdan, manfaatlar to‘qnashuviga olib keladigan yoki yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan har qanday harakatlardan tiyilishlari shart.

97. Bank Kuzatuv kengashi va boshqaruvi a’zolari manfaatlar to‘qnashuvi (hatto potensial (yashirin yoki ehtimoliy) bo‘lishi mumkin), shu jumladan, Bank bilan tuzilgan bitimda shaxsiy manfaatlar to‘qnashuvi yuzaga kelgan taqdirda, Kuzatuv kengashi yoki Korporativ maslahatchini xabardor qilishlari lozim.

98. Bankda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish bilan bog‘liq masalalar amaldagi qonunchilik, Bankning manfaatlar qarama-qarshiligi vaqtida harakat

qilish tartibi to‘g‘risidagi nizom va manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish siyosati talablari asosida tartibga solinadi.

99. Bank o‘z faoliyatidagi korrupsiyani keltirib chiqaradigan sabablar va sharoitlarni aniqlash, oldini olish, oshkor qilish, bartaraf etish hamda Bank boshqaruv organlari, xodimlari va kontragentlarining murosasizligi bilan ajralib turadigan korrupsiyaga qarshi ongni shakllantirish bo‘yicha tizimli, keng qamrovli, izchil, kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqadi va amalga oshiradi.

100. Bank yoki uning nomidan ish ko‘ruvchi shaxslar va Bank xodimlari uchun korrupsion harakatlarni oldini olish maqsadida Bank tomonidan tegishli tartiblarni o‘rnatish choralari ko‘riladi.

101. Bank o‘z faoliyatini korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi hamda xalqaro standartlar talablariga, shuningdek biznesni yuritish etikasi standartlariga muvofiq amalga oshiradi.

102. Bank boshqaruv organlari korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilik va xalqaro standartlar talablariga hamda Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatida belgilangan talablarga rioya qilinishini ta’minlaydi. Bunda, Kuzatuv kengashiga bevosita hisobdor bo‘lgan Bankning Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmati tashkil etiladi.

103. Bank boshqaruv organlari va xodimlariga korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha qonunchilik va xalqaro standartlar talablarini bilish va ularga rioya qilish majburiyat yuklanadi.

Kuzatuv kengashi a’zolari o‘zlarining korrupsiyaga qarshi kurashish siyosatiga muvofiqligi to‘g‘risidagi deklaratsiyani muayyan muddatlarda to‘ldiradilar, bunda ularning davomiyligi aniqlangan korrupsiya xavfi asosida belgilanadi. Korrupsiyaga qarshi siyosatga muvofiqligi to‘g‘risidagi deklaratsiya mustaqil hujjat yoki kengaytirilgan muvofiqlikni baholash jarayonining tarkibiy qismi bo‘lishi mumkin.

14-bob. Bankni qayta tashkil etish va tugatish

104. Bankni qayta tashkil etish raqobat to‘g‘risidagi qonunchilik talablari hisobga olingan holda, aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga muvofiq qo‘shib yuborish, qo‘shib olish, bo‘lish, ajratib chiqarish va o‘zgartirish shaklida Markaziy bankning ruxsati bilan amalga oshiriladi. Bankni qayta tashkil etish Markaziy bankning talabiga binoan ham amalga oshirilishi mumkin.

105. Bankni tugatish aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qaroriga ko‘ra qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

15-bob. Bank ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish

106. Bank Ustaviga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish qonunchilikda va ushbu Ustavda belgilangan tartibda amalga oshiriladi, shuningdek,

unga kiritiladigan barcha o‘zgartirish va qo‘shimchalar belgilangan tartibda Markaziy bankda ro‘yxatga olinadi.

Boshqaruv Raisi **Sh. Atabayev**

Tikilgan va raqamlangan

36 (o'ttiz olti)

varaqdan iborat

2026-yil 1 - may

Imzo _____

